

**O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining 2024-yilning II yarim yilligi uchun mo‘ljallangan
I Sh R E J A S I**

T/r	Ustuvor vazifalar, o‘rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Ijro muddati	Mas’ullar
I bob. 2024-yilning II yarim yilligida sohada iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor vazifalarini amalga oshirish			
1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning joylarda amalga oshirilayotgan islohotlar jaryonlaridan yaqindan tanishish va xalq bilan bevosita muloqot qilish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarga tashrifi davomida berilgan topshiriqlarning ijrosini so‘zsiz ta‘minlash.	II yarim yillik davomida	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, X.Quvondiqov, M.Ibragimov (u)
2	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi “Suv xo‘jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash to‘g‘risida”gi PF–74-sonli Farmoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalarning ijrosini so‘zsiz ta‘minlash yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.	II yarim yillik davomida	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, X.Quvondiqov, M.Ibragimov (u)
3	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-iyundagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida suv xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–101-sonli Farmoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalarning ijrosini tizimli ravishda tashkil va ta‘min etish.	II yarim yillik davomida	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, D.Xodjiaxmedov, X.Quvondiqov, M.Ibragimov (u)
4	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–300-sonli qarori bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda 2024-yil uchun suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha tasdiqlangan reja-prognoz ko‘rsatkichlar ijrosini belgilangan muddatlarda, sifatli va to‘laqonli ta‘minlash.	II yarim yillik davomida	R.Qarshiyev, D.Kdirbayev (u)
5	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyil bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5-sonli qarorining topshiriqlarining ijrosini ta‘minlash.	II yarim yillik davomida	R.Qarshiyev, D.Kdirbayev, A.Qulmatov (u)
6	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–404-sonli bilan 2024-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash va tiklash bo‘yicha belgilangan prognoz ko‘rsatkichlar ijrosini so‘zsiz ta‘minlash.	II yarim yillik davomida	D.Xodjiaxmedov, N.Xo‘jaqulov, O.Sobirov, O.Ravshanov (u)
7	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yil 29-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan “Qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanish va yo‘qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari	II yarim yillik	D.Xodjiaxmedov, M.Ibragimov,

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Ijro muddati	Mas'ullar
	to'g'risida"gi 45-sonli yig'ilish bayoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash.	davomida	N.Xo'jaqulov (u)
8	Transchegaraviy daryo va soylarda suv resurslaridan foydalanish masalalari bo'yicha xalqaro huquq va normalarga rioya etilishini ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish. O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iz Respublikalari hamda Turkmaniston o'rtasida transchegaraviy suv resurslarini hamda transchegaraviy suv obyektlarini hamkorlikda boshqarish va ulardan oqilona foydalanishni tizimli ravishda tashkil etish.	II yarim yillik davomida	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, D.Xodjiaxmedov, X.Quvondiqov, O.Xazratov, A.Tursunaliyev (u)
9	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2023-yil 29-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan 45-sonli yig'ilish bayonining 9-bandiga muvofiq 2,5 ming km uzunlikdagi, shu jumladan, Farg'ona viloyatida 660 km, Qashqadaryo viloyatida 400 km, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro va Namangan viloyatlarida 300 km, Xorazm va Sirdaryo viloyatlarida 250 km, Surxondaryo, Andijon va Toshkent viloyatlarida 200 km hamda Samarqand, Jizzax, Navoiy viloyatlarida 150 km ichki tarmoqlarni beton qoplamaga o'tkazilishini tizimli ravishda tashkil etish.	II yarim yillik davomida	T.Butunbayev, D.Xodjiaxmedov, N.Xo'jaqulov, R.Toshev, X.Kabilov (u)
10	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–6024-sonli Farmoni va ushbu hujjat bilan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi" hamda O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini amalga oshirish natijasida erishiladigan asosiy maqsadli ko'rsatkichlar va Indikatorlarga muvofiq suvni iqtisod qilish, sug'orish tarmoqlarida suv yo'qotilishini kamaytirish, yiliga o'rtacha 35 foiz suv yo'qolishi sababli foydali ish koeffitsientini yiliga o'rtacha 1,0 foizdan oshirib 2024-yilda 0,67 ga yetkazish, 5800 km kanallarni tozalash va ulardagi 5650 dona gidrotexnika inshootlari hamda 5720 dona gidropostlarni ta'mirlash-tiklash ishlarini tizimli ravishda tashkil va ta'min etish.	II yarim yillik davomida	T.Butunbayev, R.Toshev, X.Kabilov (u)
11	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-maydagi "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–158-sonli qaroriga asosan suv omborlari to'g'onlarining deformatsiyalanish, siljish va cho'kish dinamikasini kosmik monitoring qilish bo'yicha ishlarini tashkil qilish.	II yarim yillik davomida	T.Butunbayev, R.Toshev, X.Kabilov (u)
12	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–76-sonli Farmoniga asosan suv xo'jaligi sohasini raqamlashtirish bo'yicha vazirlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini tizimli ravishda tashkil va ta'min etish.	II yarim yillik davomida	X.Quvondiqov, B.Mamadaliyev, I.Jo'rayev, Sh.Xaydarov (u)
13	2024-yilda jami 7422 ta suv xo'jaligi obyektni raqamlashtirish, shu jumladan: 4755 ta suv xo'jaligi inshootida real vaqt rejimida suvni nazorat qilish va uning hisobini yuritish uchun "Smart water" ("Aqli suv") tizimini joriy etish; 2647 ta meliorativ kuzatuv qudug'ini avtomatlashtirilgan monitoring tizimiga o'tkazish; 20 ta yirik suv xo'jaligi obyektining boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish tadbirlarini belgilangan	II yarim yillik davomida	X.Quvondiqov, O.Abdullayev, R.Toshev, O.Sobirov, X.Kabilov, Sh.Xaydarov (u)

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Ijro muddati	Mas'ullar
	muddatlarda, to'laqonli va sifatli bajarilishini ta'minlash.		
14	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-iyundagi "Ma'muriy islohotlar doirasida suv xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-101-sonli Farmonining 4-bandiga asosan Suv xo'jaligi vazirligining quyi (tuman) bo'g'inda suv resurslarini boshqarish, fermer xo'jaliklari va boshqa suv iste'molchilariga suv yetkazib berish hamda suvning hisobini yuritish funksiyasini bosqichma-bosqich davlat-xususiy sheriklikka o'tkazilishini ta'minlash.	II yarim yillik davomida	T.Butunbayev, O.Abdullayev, R.Sharopov, A.Duvlonov (u)
15	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan "Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanish va yo'qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 45-sonli yig'ilish bayonining 20-bandiga asosan 268 ta nasos stansiyalarni davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida xususiy sektor boshqaruviga berilishini tashkil etish.	II yarim yillik davomida	T.Butunbayev, O.Abdullayev, R.Sharopov, A.Duvlonov (u)
16	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-fevral kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan "Qishloq xo'jaligida ishga solinmagan yangi zaxiralarni safarbar etish hamda 2024-yilgi ustvor vazifalar to'g'risida"gi 8-sonli yig'ilish bayonining 16-bandiga muvofiq, 500 ta suv xo'jaligi obyektni davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida xususiy sektor boshqaruviga berilishini ta'minlash.	II yarim yillik davomida	T.Butunbayev, O.Abdullayev, R.Sharopov, A.Duvlonov (u)
17	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024-yil 1-martdagi Xorazm viloyatiga tashrifi yakunlari bo'yicha o'tkazilgan 16-sonli yig'ilish bayoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar, shu jumladan, viloyatdagi 50 ta nasos stansiyalariga salohiyatli tadbirkorlarni jalb qilib, belgilangan tartibda davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritishga berilishini ta'minlash.	II yarim yillik davomida	T.Butunbayev, O.Toirov, O.Abdullayev, R.Sharopov, A.Duvlonov (u)
18	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024-yil 1-martdagi Xorazm viloyatiga tashrifi yakunlari bo'yicha o'tkazilgan 16-sonli yig'ilish bayoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar, shu jumladan, "Toshsoqa tizimidagi magistral sug'orish kanallarini qayta tiklash" loyihasi 2-bosqichi bo'yicha loyihani moliyalashtirish uchun 130 mln. AQSh dollari miqdoridagi xorijiy kredit mablag'larini jalb qilish bilan bog'liq kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.	II yarim yillik davomida	X.Quvondiqov, O.Toirov, J.Abbosov, Sh.Sultonov (u)
19	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024-yil 16-fevraldagi Andijon viloyatiga tashrifi yakunlari bo'yicha o'tkazilgan 11-sonli yig'ilish bayoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar, shu jumladan, 21,6 ming gektar yer maydonida suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilib, 10 ming gektar yer maydonlarini lazerli tekislash ishlarini ta'minlash.	II yarim yillik davomida	R.Qarshiyev, X.Xamidov, D.Kdirbayev (u)
20	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi Andijon viloyatiga tashrifi yakunlari bo'yicha o'tkazilgan 11-sonli yig'ilish bayoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar, shu jumladan, 2024-yilda 90 mlrd. so'mlik 265 km sug'orish tarmog'ini betonlash, 22 ta gidrotexnik inshoot va nasos stansiyasini ta'mirlash ishlarini amalga oshirish.	II yarim yillik davomida	D.Xodjiaxmedov, X.Xamidov, O.Abdullayev, N.Xo'jaqulov (u)
21	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli Farmoni hamda 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari	II yarim yillik	D.Xodjiaxmedov, N.Xujaqulov,

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Ijro muddati	Mas'ullar
	to'g'risida"gi PQ-300-sonli qaroriga muvofiq: tuproq o'zanli bo'lgan magistral va xo'jaliklararo kanallarning beton qoplamali ulushini 39 foizga oshirish; sug'oriladigan yer maydonlarida sho'rlangan maydonlarni 1,7 mln. gektargacha, kuchli va o'rta sho'rlangan sug'oriladigan yer maydonlarini 430,0 ming gektargacha, yer osti suv sathi muammoli holatda (0–2 m) bo'lgan yer maydonlarini 773,4 ming gektargacha kamaytirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish.	davomida	O.Sabirov, O.Ravshanov (u)
22	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatning qaror va topshiriqlarida 2024-yil uchun belgilangan prognoz ko'rsatkichlar: nasos stansiyalaridagi 148 ta nasos agregatini energiya tejamkor nasoslarga almashtirish; nasos stansiyalarining 149 ta eskirgan elektrodvigatelni yangisiga almashtirish; 131 ta kondensator qurilmasini o'rnatish; 107 ta chastota o'zgartiruvchi (elektrodvigatelni bir tekis ishga tushirish) qurilma, 83 ta quyosh batareyasini o'rnatish ishlarini tashkil etish; nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste'molini kamaytirib borish natijasida yillik sarfni 7,06 mlrd. kVt. soat miqdordan oshirmaslik choralari ko'rish.	II yarim yillik davomida	T.Butunbayev, O.Abdullayev, M.Tagayev, M.Ataullayev (u)
23	O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya to'g'risida"gi va O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida vazirlik tizimidagi budjet tashkilotlarida moliya-xo'jalik faoliyatidagi huquqbuzarliklar profilaktikasini tizimli ravishda amalga oshirish.	II yarim yillik davomida	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, S.Alimardonov (u)
24	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024-sonli Farmoni topishirig'iga muvofiq suv xo'jaligi xodimlari oylik ish haqini respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga yetkazish (o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan) bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish.	II yarim yillik davomida	X.Quvondiqov, S.Alimardanov, J.Abbosov (u)
25	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi "Suv xo'jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash to'g'risida"gi PF-74-sonli Farmonining 1-ilovasiga asosan tasdiqlangan Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar xodimlarining mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirishda qo'llanadigan koeffitsientlar va ustamalarga asosan to'lanishini ta'minlash.	II yarim yillik davomida	X.Quvondiqov, J.Abbosov, V.Raximov, Yu.Berdibekov, Sh.Xushbaqov (u)
26	Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi 414-sonli qarori ijrosini so'zsiz ta'minlash, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armasiga mablag'lar tushirilishini yanada takomillashtirish hamda xodimlarni ijtimoiy himoya qilish va moddiy rag'batlantirishni tizimli ravishda tashkil va ta'min etish.	II yarim yillik davomida	X.Quvondiqov, S.Alimardanov, J.Abbosov (u)
27	Rivojlangan ilg'or davlatlarning tajribalarini o'rganib chiqib, suv xo'jaligi sohasiga yangi innovatsion texnologiyalarni joriy qilish hamda kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, suv xo'jaligi tashkilotlarining ta'lim va ilmiy muassasalar bilan o'zaro integratsiyasini kuchaytirish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq qilish yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.	II yarim yillik davomida	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, A.O'razkeldiyev, X.Lapasov (u)

T/r	Ustuvor vazifalar, o‘rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Ijro muddati	Mas’ullar
28	Vazirlik markaziy apparati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini so‘zsiz ta‘minlash bilan bog‘liq tadbirlarni amalga oshirish.	II yarim yillik davomida	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, X.Quvondiqov, X.Lapasov (u)
29	Vazirlik markaziy apparati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 595-sonli qarorining ijrosini tizimli ravishda tashkil va ta‘min etish.	II yarim yillik davomida	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, X.Quvondiqov, X.Lapasov (u)
30	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy darajadagi tashriflari davomida qabul qilingan “Yo‘l xarita”larida vazirlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini tizimli ravishda tashkil etish yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.	II yarim yillik davomida	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, O.Xazratov (u)
31	O‘zbekiston, Tojikiston, Qozog‘iston, Qirg‘iz Respublikalari o‘rtasida transchegaraviy suv resurslarini boshqarish va ulardan oqilona foydalanish hamda transchegaraviy suv obyektlarini ishlatishni yaxshilash, shuningdek, suv xo‘jaligidagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha tasdiqlangan chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish.	II yarim yillik davomida	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, X.Quvondiqov, O.Xazratov (u)
32	O‘zbekiston Respublikasining 2024-yilga mo‘ljallangan Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar doirasida yillik o‘zlashtirish ko‘rsatkichlar, shuningdek, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumatlar hamda budget mablag‘lari hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarning ijrosini so‘zsiz ta‘minlash.	II yarim yillik davomida	X.Quvondiqov, Sh.Sultonov, Sh.Batirov (u)
33	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024-yil 1-martdagi Xorazm viloyatiga tashrifi yakunlari bo‘yicha o‘tkazilgan 16-sonli yig‘ilish bayoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar, shu jumladan, “Toshsoqa tizimidagi magistral sug‘orish kanallarini qayta tiklash” loyihasi 2-bosqichi bo‘yicha loyihani moliyalashtirish uchun 130 mln. AQSh dollari miqdoridagi xorijiy kredit mablag‘larini jalb qilish bilan bog‘liq kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.	II yarim yillik davomida	X.Quvondiqov, O.Toirov, J.Abbosov, Sh.Sultonov (u)
34	“Ijro.gov.uz” tizimida nazoratda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlarning ijrosini so‘zsiz ta‘minlash bo‘yicha vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari, bosh va yetakchi mutaxassisleri hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlarining shaxsiy mas’uliyatini oshirish yuzasidan qo‘shimcha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.	II yarim yillik davomida	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, D.Xodjiyaxmedov, X.Quvondiqov, M.Ibragimov (u)
35	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–300-sonli qarori bilan tasdiqlangan 82-maqсадga muvofiq 2024-yilda vazirlikka kelib tushgan murojaatlarning 80 foizini qanoatlantirish bilan bog‘liq chora-tadbirlar belgilash va uni tizimli ravishda amalga oshirish.	II yarim yillik davomida	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, D.Xodjiyaxmedov, X.Quvondiqov, U.Sultonov (u)

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Ijro muddati	Mas'ullar
36	Vazirlik markaziy apparati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, viloyatlar irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarida O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunining ijrosini tizimli ravishda tashkil va ta'min etish.	II yarim yillik davomida	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, D.Xodjiyaxmedov, X.Quvondiqov, U.Sultonov (u)
37	O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi to'g'risida"gi Qonuni va mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi doirasida keng jamoatchilikni suv xo'jaligi tizimi amalga oshirilayotgan islohotlar va erishilayotgan natijalar, ularning samaralari bilan muntazam ravishda boxabar bo'lib borishini ta'minlash bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirish.	II yarim yillik davomida	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, D.Xodjiyaxmedov, X.Quvondiqov, Sh.Suyunov (u)
II bob. 2024-yilning II yarim yilligida vazirlikning ustuvor vazifalarini amalga oshirish bo'yicha takliflar tayyorlash			
38	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli qarorining 1-ilovasi b-bandiga muvofiq Qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orish va baliqlarni yetishtirish (o'stirish) uchun foydalaniladigan suv hajmi, shu jumladan dehqon xo'jaliklari va qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarga ega bo'lgan jismoniy shaxslarga suv resurslaridan foydalaniganligi uchun soliqni hisoblash tartibini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	1-iyul	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, X.Quvondiqov, J.Abbasov, A.Tursunaliyev, A.Qulmatov (u)
39	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli qarorining 14-bandiga muvofiq Qishloq xo'jaligi vazirligi, Kadastr agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi, Adliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyatlar hokimlari bilan birgalikda 2024-yil 1-iyulga qadar barcha sug'orish tarmoqlarining xatlovdan o'tkazilishini tashkil qilish hamda ularning tegishlilik bo'yicha balansga berilishi va kadastr hujjatlari rasmiylashtirilishi, shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida har bir sug'orish tarmog'ini klassifikatsiyalash va identifikatsiyalash yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	1-iyul	X.Quvondiqov, A.Tursunaliyev, A.Qulmatov (u)
40	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi PF-74-sonli Farmonining 6-ilovasi 16-bandiga asosan sho'r yuvish tadbirlarini amalga oshirish maqsadida yetkazib beriladigan suv miqdorining hisobi, shu jumladan, minimal soliq stavkasini belgilash orqali, yuritilishini ta'minlash yuzasidan qaror loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	10-iyul	R.Qarshiyev, A.Albekov, M.Boltayev, A.Kulmatov (u)
41	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi PF-74-sonli Farmonining 6-ilovasi 8.1-bandiga muvofiq suv fondi yerlarini xatlovdan va doimiy foydalanish huquqini davlat ro'yxatidan o'tkazish, bunda kanal va kollektorlar ostidagi yerlarni hamda suv fondi yerlarining kadastrini shakllantirish bo'yicha besh yillik dastur ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	15-iyul	D.Xodjiyaxmedov, B.Mamadaliyev, S.Alimov (u)
42	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari ijrosi ustidan nazoratni	15-iyul	D.Xodjiyaxmedov, N.Xujaqulov,

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Ijro muddati	Mas'ullar
	kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-43-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-apreldagi "Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va davlat investitsiyalarini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 206-sonli qarorlari talablariga muvofiq 2025-yilga mo'ljallangan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritish taklif etiladigan irrigatsiya va melioratsiya loyihalari ro'yxatini Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.		M.Sabirov (u)
43	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi PF-74-sonli Farmoni 11-bandiga muvofiq Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi, Gidrometeorologiya xizmati agentligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda Yagona suv balansi va kadastrini yuritish tartibi to'g'risidagi nizom loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	6-avgust	T.Butunbayev, D.Xodjiyaxmedov, S.Alimov (u)
44	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi PF-74-sonli Farmonining 6-ilovasi 10-bandiga muvofiq "Aholi tomorqa yerlariga suv yetkazib berish tizimini samarali tashkil etish bo'yicha tartib ishlab chiqish, bunda tomorqa yerlarda suv hisobi, shu jumladan, minimal soliq stavkasini belgilash orqali yuritilishini ta'minlash" bo'yicha takliflar tayyorlash.	10-avgust	R.Qarshiyev, R.Tashev, A.Tursunaliyev, L.Boboqulov (u)
45	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 25-26-mart kunlari Namangan viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar bo'yicha 21-sonli yig'ilish bayoni 43-bandiga muvofiq aholi tomorqa yerlariga suv yetkazib berish tizimini samarali tashkil etish bo'yicha tartib ishlab chiqish, bunda tomorqa yerlarda suv hisobi, shu jumladan minimal soliq stavkasini belgilash orqali yuritilishini ta'minlash uchun Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	10-avgust	R.Qarshiyev, A.Albekov, A.Kulmatov, S.Xaydarov (u)
46	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli qarorining 1-ilovasi b-bandiga muvofiq qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orish va baliqlarni yetishtirish (o'stirish) uchun foydalaniladigan suv hajmi, shu jumladan dehqon xo'jaliklari va qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarga ega bo'lgan jismoniy shaxslarga suv resurslaridan foydalanganligi uchun soliqni hisoblash tartibini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	10-avgust	R.Qarshiyev, A.Albekov, A.Kulmatov M.Boltayev (u)
47	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida o'tkazilgan yig'ilishning 2024-yil 29-martdagi 11-2024-sonli bayoni 95-bandiga muvofiq Jahon banki ishtirokida amalga oshirilayotgan "Farg'ona vodiysida suv resurslarini boshqarish. 2-faza" loyihasi bo'yicha tuzilgan shartnoma doirasida iqtisod qilingan mablag'lar hisobidan O'zbekiston hamda Qirg'iziston Respublikasi chegara hududida joylashgan "Savay" kanalining 4,6 km qismini rekonstruksiya qilish maqsadida tuzilgan shartnoma muddatini uzaytirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	16-avgust	X.Quvondiqov, Sh.Sultonov (u)
48	Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, viloyatlar irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari hamda yirik suv xo'jaligi tashkilotlari tomonidan 2024-2025-yillar kuzgi-qishki davrida sug'orish tarmoqlari (kanallar)ni tozalash, ulardagi gidrotexnika inshootlari va gidropostlarni ta'mirlash-tiklash ishlari bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va vazirlik buyrug'ini tayyorlash.	20-avgust	R.Qarshiyev, X.Kabilov, Sh.Israilov, X.Xamrayev (u)

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Ijro muddati	Mas'ullar
49	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PF-76-sonli Farmonining 5-ilovasi 27.3-bandiga muvofiq har yili kelgusi yil uchun raqamlashtirish dasturlarini ishlab chiqish. Bunda, raqamlashtirish dasturiga kiritilgan tadbirlarni kelgusi yil uchun shakllantiriladigan Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutish uchun kelgusi yil uchun budget buyurtmasini asoslangan hisob-kitoblar bilan taqdim etish.	31-avgust	X.Quvondiqov, Sh.Xaydarov Sh.Xaydarov (u)
50	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-sonli Farmonining 12-bandiga muvofiq Qishloq xo'jaligi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi bilan birgalikda 2024-yil 1-sentabrga qadar: oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosiy sabzavot ekinlarining serhosil, kasalliklarga va qurg'oqchilikka chidamli mahalliy navlarini yaratish, ularning urug'chiligini tashkil etish hamda ichki bozorni mahalliy urug'liklar bilan ta'minlash dasturini; global iqlim o'zgarishiga moslashish hamda mavjud resurslardan unumli foydalanish maqsadida suv ta'minoti yomon bo'lgan va lalmi yerlarda moyli ekinlar va boshqa oziq-ovqat ekinlari hamda chorva ozuqa ekinlarini tuproqqa "nol" ishlov berish (No-Till) texnologiyasi asosida yetishtirish dasturini; qishloq xo'jaligi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib tuproqning sho'rlanish darajasini pasaytirishda sho'r yuvish tadbirini biologik usullarga almashtirish yuzasidan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	1-sentabr	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, A.Tursunaliyev (u)
51	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hujjatlari bilan 2024-yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta'minlash bo'yicha vazirlik markaziy apparati boshqarma va mustaqil bo'limlari, vazirlik tasarrufidagi Respublika va tizim tashkilotlarining amalga oshirgan ishlarini tahlil qilish va yo'l qo'yilgan kamchiliklar bo'yicha rahbariyatga asoslangan taklif kiritish.	5-sentabr	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, M.Ibragimov, Sh.Yoqubov, S.Toshxonov (u)
52	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-martdagi PQ-138-sonli qarori 1.2-bandiga asosan Toshkent shahri Yangiayot tumani "Xo'ja Uchqun", "Jaloyir" va "Yangi Gulzor" mahallalari tutashgan hududdagi 664,5 ga qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan, shu jumladan 592,5 ga sug'oriladigan yer uchastkalarini sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar toifasiga o'tkazish uchun Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan va o'rmon fondi yerlarining yer fondi toifalarini o'zgartirish masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha Hukumat komissiyasiga belgilangan tartibda taklif kiritish.	20-sentabr	R.Qarshiyev, A.Tursunaliyev (u)
53	"Suvdan maxsus foydalanish va suvni maxsus iste'mol qilish uchun zarur bo'lmagan ruxsatnomalar berish bilan bog'liq ortiqcha jarayonlarni bekor qilish" bo'yicha tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasini tayyorlash.	25-sentabr	R.Qarshiyev, R.Tashev, A.Tursunaliyev (u)
54	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi PQ-109-sonli qarorining 1-ilovasi 28-bandiga muvofiq tuproqning meliorativ holatini yaxshilash hamda suv inshootlari bilan band bo'lmagan suv fondi yerlarini ijaraga berish tartibini belgilash bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	30-sentabr	D.Xodjiyaxmedov, N.Xo'jaqulov (u)

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Ijro muddati	Mas'ullar
55	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PQ-193-sonli qarorining 9.b.1-bandiga muvofiq 2024-yil 1-oktabrga qadar manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalar taqdim etilishini tizimli monitoring qilish va ularning samaradorligini baholash tartibini (metodologiyasini) ishlab chiqish va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	1-oktabr	R.Qarshiyev, D.Kdirbayev (u)
56	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli qarorining 1-ilovasi 16-bandiga muvofiq qishloq xo'jaligida suvni tejashda gidrogellardan foydalanishning yo'nalishlari va samaradorligini o'rganib chiqib, hududlarning tuproq-iqlim sharoitida gidrogellardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi bo'yicha Hukumatga taklif kiritish.	1-oktabr	R.Qarshiyev, A.Urazkeldiyev (u)
57	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli qarorining 1-ilovasi 15-bandiga muvofiq Farg'ona viloyati qishloq xo'jaligida sarflangan suv miqdorini kosmik texnologiyalar orqali hisoblash bo'yicha pilot loyihani amalga oshirish hamda ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy etish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	1-oktabr	R.Qarshiyev, A.Tursunaliyev (u)
58	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli qarorining 1-ilovasi 12-bandiga muvofiq qishloq xo'jaligida suv iste'molchilarining suvdan foydalanish madaniyatini oshirishga undovchi materiallar ishlab chiqish hamda ta'lim tashkilotlarining ta'lim jarayonlarida qo'llash va ommaviy axborot vositalarida keng yoritishni ko'zda tutuvchi dastur ishlab chiqish hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	1-oktabr	R.Qarshiyev, A.Urazkeldiyev (u)
59	Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari matbuot xizmatlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ular faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan vazirlik rahbariyatiga taklif kiritish.	7-oktabr	T.Butunbayev, X.Quvondiqov, Sh.Suyunov (u)
60	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyundagi PF-6024-sonli Farmoni 4.2-bandiga muvofiq suv xo'jaligini rivojlantirish loyihalarini shakllantirishda xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan mablag' jalb etishda davlat tashqi qarzi uchun o'rnatiladigan yillik me'yorlar doirasida belgilangan tartibda takliflarni kiritib borish.	10-oktabr	X.Quvondiqov, Sh.Sultonov (u)
61	Respublika budjeti va viloyatlar mahalliy budjeti mablag'lari hisobidan 2025-yilda amalga oshiriladigan melioratsiya obyektlarini ta'mirlash-tiklash bo'yicha ustuvor loyihalar ro'yxatini shakllantirib, belgilangan tartibda Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish.	15-oktabr	D.Xodjiaxmedov, N.Xujaqulov, O.Sabirov (u)
62	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-yanvardagi PF-14-sonli Farmoni 6-bandiga muvofiq xorijiy va mahalliy olimlarni jalb qilgan holda Chirchiq daryosi o'zanini ekologik reabilitatsiya qilish bo'yicha kompleks loyihani ishlab chiqish va uni tasdiqlash bo'yicha tegishli normativ-huquqiy hujjat loyahasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	25-oktabr	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, X.Kabilov (u)
63	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-yanvardagi PF-14-sonli Farmoni 1-ilovasi 4.3-bandiga muvofiq Chirchiq daryosining tabiiy holatini qayta tiklash, daryo o'zanini kompleks reabilitatsiya qilish loyahasini amalga oshirish.	31-oktabr	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, X.Kabilov (u)

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Ijro muddati	Mas'ullar
	Ishlab chiqilgan loyiha asosida tegishli vazirlik va idoralar tomonidan daryo o'zanini tozalash, to'g'rilash, qirg'oqlarini mustahkamlash, qurilish va boshqa chiqindilardan tozalash, buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish tadbirlarini o'z ichiga olgan chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish hamda belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.		
64	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2024-yil 25–26-mart kunlari Namangan viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar bo'yicha 21-sonli yig'ilish bayonining 43-bandidagi Namangan viloyatidagi har bir mahallalar tomonidan yangi tashkil qilingan “Suv yetkazib berish xizmati” bilan shartnomalar tuzilishini tashkil etish, shartnomada aholi tomorqalariga qancha suv yetkazib berish, tomorqa egalari, mahalla va “Suv yetkazib berish xizmati” majburiyatlarini aniq belgilab berish.	1-noyabr	R.Qarshiyev, A.Albekov, A.Kulmatov (u)
65	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PQ–5742-sonli qarori 8.1-bandiga muvofiq har yili 1-noyabrga qadar mazkur Farmonning 3-ilovasida tasdiqlangan maydonlarning keyingi yilda qayta tiklanadigan va foydalanishga kiritiladigan yer maydonlari manzilli ro'yxatini aloqador vazirlik va idoralar bilan kelishgan holda shakllantirib, tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritib borish.	1-noyabr	D.Xodjiaxmedov, N.Xo'jaqulov (u)
66	Jahon banki ishtirokidagi “Farg'ona vodiysida suv resurslarini boshqarish 2-bosqich loyihasi”ning yangilangan rexnik-iqtisodiy asosnomasini ishlab chiqish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori loyihasini vazirlik va idoralar bilan kelishish hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	1-noyabr	X.Quvondiqov, Sh.Sultonov, B.Fayzullayev (u)
67	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi PF–74-sonli Farmonining 6-ilovasi 12.2-bandiga muvofiq suv xo'jaligi tizimi xodimlarining oylik ish haqi miqdorlarini oshirish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni 2025-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti parametrlarini shakllantirishda ko'zda tutilishini ta'minlash bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirish.	25-noyabr	X.Quvondiqov, J.Abbosov(u)
68	Vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan ariza, murojaat va takliflar bilan ishlash uchun mas'ul xodimlarga etarli shart-sharoitlar (fuqarolarni qabul qilish xonasi, alohida kabinet, kompyuter, printer, skaner, nusxa ko'chirish va h.k.) bilan ta'minlanish yuzasidan vazirlik rahbariyatiga taklif kiritish.	5-dekabr	T.Butunbayev, R.Sharopov, U.Sultonov, S.Omonov (u)
III bob. 2024-yilning II yarim yilligiga belgilangan ustuvor vazifalariga muvofiq respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlarida iqtisodiy islohotlarning natijadorligini tahlil qilish			
69	O'zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida”gi, O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya to'g'risida”gi va O'zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to'g'risida”gi qonunlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilinishini Chapqirg'oq Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi muassasalarida moliya-xo'jalik faoliyatidagi huquqbuzarliklar va profilaktikasini tahlil qilish.	Iyul	X.Quvondiqov, S.Alimardonov J.Mahmayev, A.Axrоров (u)
70	“Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimida nazoratda turgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlari, shuningdek, vazirlikka kelib tushgan xat va hujjatlar, vazirlik tomonidan qabul qilingan	Iyul	T.Butunbayev, M.Ibragimov,

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Ijro muddati	Mas'ullar
	buyruqlar, hay'at yig'ilishi qarorlari va nazorat rejalarining ijrosini tahlil qilish.		B.Eshonqulov (u)
71	Zarafshon, Amu-Qashqadaryo hamda Amu-Surxon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari tomonidan 2024-yilgi dasturi ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish.	Iyul	T.Butunbayev, O.Abdullayev, B.Mirzayev (u)
72	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat hujjatlariga asosan 2020–2023-yillarda Jizzax, Sirdaryo va Qashqadaryo viloyatlarida amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarning natijadorligini tahlil qilish.	Iyul	T.Butunbayev, A.Duvlonov (u)
73	“Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimida nazoratda turgan Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari va nazorat rejalarining ijrosini tahlil qilish.	Avgust	T.Butunbayev, M.Ibragimov (u)
74	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumat hujjatlari va topshiriqlari, shuningdek, vazirlik buyruqlari, hay'at qarorlari, yig'ilish bayonnomalarida topshiriqlari ijrosini ta'minlash bo'yicha Toshkent, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari hududida joylashgan vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarida suv xo'jaligida raqamli texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni tahlil qilish.	Avgust	X.Quvondiqov, Sh.Xaydarov, A.Ismoilov, Sh.To'xtasinov, Sh.Xaydarov(u)
75	Qoraqalpog'iston Respublikasi suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qoraqalpog'iston nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi, Sirdaryo-So'x ITHB huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi, Amu-Buxoro mashina kanalidan foydalanish boshqarmasi, Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi hamda Jizzax bosh nasos stansiyasi boshqarmasiga qarashli nasos stansiyalarning elektr energiyasi iste'molini tahlil qilish.	Avgust	T.Butunbayev, O.Abdullayev, B.Mirzayev, M.Ataullayev (u)
76	Amu-Surxon, Norin-Qoradaryo hamda Norin-Sirdaryo ITHB huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari tomonidan 2024-yilning 7 oyi davomida energiya tejamkor qurilmalar o'rnatilishi hamda elektr energiya iste'molini kamaytirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarini tahlil qilish.	Avgust	O.Abdullayev, B.Mirzayev, M.Ataullayev (u)
77	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat hujjatlariga asosan 2021–2023-yillarda Toshkent va Farg'ona viloyatlarida amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarning natijadorligini tahlil qilish.	Avgust	T.Butunbayev, A.Duvlonov, M.Kamolov (u)
78	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PF–6024-sonli Farmoniga asosan irrigatsiya tarmoqlarini tozalash, gidrotexnik inshootlari va gidropostlarni ta'mirlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari hududida joylashgan vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarida olib borilayotgan ishlarni tahlil qilish.	Avgust	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, X.Kabilov, X.Xamrayev (u)
79	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-dekabrda PQ–438-sonli qaroriga asosan Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlarida amalga oshirilayotgan Evropa tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokidagi “118 ta nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish” loyihasi doirasida olib borilayotgan ishlarni tahlil qilish.	Avgust	X.Quvondiqov, Sh.Sultonov, A.Yuldashev (u)
80	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-sentabrdagi PQ–381-sonli qaroriga asosan Surxondaryo va Buxoro viloyatlarida amalga oshirilayotgan Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi “Orolbo'yi havzasida suv resurslarini iqlim o'zgarishiga mos holda boshqarish” loyihasi doirasida olib borilayotgan ishlarni tahlil qilish.	Avgust	X.Quvondiqov, Sh.Sultonov, B.Abzalov (u)

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Ijro muddati	Mas'ullar
81	O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun Davlat budjeti to'g'risida"gi va O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilinishini Quyi Zarafshan ITHB tizimidagi muassasalarida moliya-xo'jalik faoliyatidagi huquqbuzarliklar va profilaktikasini tahlil qilish.	Avgust	X.Quvondiqov, S.Alimardonov, J.Mahmayev (u)
82	O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun Davlat budjeti to'g'risida"gi va O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilinishini Amu-Surxon ITHB tizimidagi muassasalarida moliya-xo'jalik faoliyatidagi huquqbuzarliklar va profilaktikasini tahlil qilish.	Sentabr	X.Quvondiqov, S.Alimardonov, J.Mahmayev, A.Axrarov(u)
83	2024-yilning I yarim yilligi davomida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va yig'ilish bayonlari topshiriqlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi topshiriqlarining ijrosini tahlil qilish.	Sentabr	T.Butunbayev, M.Ibragimov, Ch.Xasanov (u)
84	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumat hujjatlari va topshiriqlari, shuningdek, vazirlik buyruqlari, hay'at qarorlari, yig'ilish bayonnomalarida topshiriqlari ijrosini ta'minlash bo'yicha Samarqand, Navoiy, Surxondaryo, Qashqadaryo, viloyatlari hududida joylashgan vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarida suv xo'jaligida raqamli texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni tahlil qilish.	Sentabr	X.Quvondiqov, Sh.Xaydarov, J.To'xtasinov, A.Ismoilov (u)
85	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat hujjatlariga asosan 2020–2023-yillarda Andijon va Namangan viloyatlarida amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarning natijadorligini tahlil qilish.	Sentabr	T.Butunbayev, A.Duvlonov (u)
86	Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-oktabrdagi maxsus qarorida belgilangan topshiriqlarning bajarilmay qolgan qismini 2024-yilda bajarish hamda suv omborlarining xavfsiz ishlashi bo'yicha Surxondaryo, Qashqadaryo, Navoiy va Samarqand viloyatlari Suv omborlaridan foydalanish boshqarmalarida olib borilayotgan ishlarni tahlil qilish.	Sentabr	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, X.Kabilov (u)
87	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-sentabrdagi PQ–3282-sonli qarori asosida amalga oshirilayotgan Jahon banki ishtirokida "Farg'ona vodiysida suv resurslarini boshqarish. 2-faza" loyihasida olib borilayotgan ishlarni tahlil qilish.	Sentabr	X.Quvondiqov, Sh.Sultonov (u)
88	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumat hujjatlari va topshiriqlari, vazirlik buyruqlari, hay'at qarorlari, yig'ilish bayonnomalari topshiriqlari ijrosini ta'minlash bo'yicha Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari hududida joylashgan vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarida olib borilayotgan ishlarni tahlil qilish.	Oktabr	T.Butunbayev, M.Ibragimov, B.Eshonqulov (u)
89	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumat hujjatlari va topshiriqlari ijrosini ta'minlash bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro viloyatlari hududida joylashgan vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarida suv xo'jaligida raqamli texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni tahlil qilish.	Oktabr	X.Quvondiqov, Sh.Xaydarov A.Ismoilov, J.To'xtasinov (u)

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Ijro muddati	Mas'ullar
90	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-apreldagi "Suvdan foydalanish va suv iste'molida suv resurslarining hisobi va hisobotini hamda monitoringini yuritish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 174-sonli qaroriga asosan suv resurslarining hisob-kitobi hamda ulardan oqilona foydalanilishi yuzasidan Andijon, Namangan va Sirdaryo viloyatlarida amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish.	Oktabr	R.Qarshiyev, A.Albekov, M.Boltayev, A.Kulmatov (u)
91	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat hujjatlariga asosan 2020–2023-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarning natijadorligini tahlil qilish.	Oktabr	T.Butunbayev, A.Duvlonov, M.Kamolov (u)
